

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedov Mirzohid Xusanboy o'g'li
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Maqolada davlat moliyaviy nazoratining nazariy va huquqiy asoslari, moliyaviy nazoratning tushunchalari va mohiyati, uning mazmuni va turlari bo'yicha moliyaviy huquq sohasidagi olimlarning qarashlari o'rganildi. O'rganib va ko'rib chiqilgan nazariy qarashlar va tavsiyalar moliya sohasidagi olimlar va amaliyotchilar uchun qiziqarli va foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: davlat moliyaviy nazorati, moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazoratining mazmuni, moliyaviy nazoratning mohiyati, moliyaviy nazoratni tasniflash, nazorat belgilari, nazorat turlari.

Abstract. The theoretical and legal foundations of state financial control, concepts and essence of financial control, views of financial law scholars on its content and types were studied in the article. The theoretical views and recommendations studied and reviewed can be interesting and useful for scholars and practitioners in the field of finance.

Key words: state financial control, financial control, content of state financial control, essence of financial control, classification of financial control, signs of control, types of control.

Абстракт. В статье изучены теоретико-правовые основы государственного финансового контроля, понятия и сущность финансового контроля, взгляды ученых-финансистов на его содержание и виды. Изученные и рассмотренные теоретические взгляды и рекомендации могут быть интересны и полезны для ученых и практиков в области финансов.

Ключевые слова: государственный финансовый контроль, финансовый контроль, содержание государственного финансового контроля, сущность финансового контроля, классификация финансового контроля, признаки контроля, виды контроля.

Moliyaviy nazoratning yuzaga kelishi va rivojlanishi davlat moliyaviy tizimining tashkil etilishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Moliyaviy nazoratni tashkil etish bu moliyaviy resurslarni boshqarishning majburiy elementi hisoblanib, bunday boshqaruv jamiyat oldidagi javobgarlikni aks ettiradi. Nazorat bu oxirgi maqsad hisoblanmaydi, nazorat bu boshqarish tizimining ajralmas qismi bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy shartidir. Moliyaviy nazorat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish ustidan davlat nazoratining tarkibiy elementi bo'lib hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek - "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash - eng muhim ustuvor vazifamizdir".

Davlat budjeti budget mablag'lari boshqaruvchilarining ehtiyojlarini moliyalashtirish orqali muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Iqtisodiyot va umuman jamiyatni rivojlantirish uchun muhimligiga qaramay, O'zbekiston budget tizimi yuqori markazlashuv, davlat qarzining yuqori darajasi sharoitida budget taqchilligini moliyalashtirish muammolari va boshqalar bilan bog'liq ma'lum kamchiliklarga ega.

Davlat moliyaviy nazorati bu davlatning asosiy qonunlariga tayanadigan va hokimiyat hamda boshqaruv organlari iqtisodiy-huquqiy harakatining kompleksli va maqsadga yo'naltirilgan tizimidir. Moliyaviy nazoratni tashkil etishda mamlakatning Konstitutsiyasi hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Uning huquqiy reglamenti davlatning tipiga, uning sotsial-siyosiy yo'naltirilganligiga, iqtisodiy tarqqiyot darajasiga, mulkchilik shakllarining nisbatiga bog'liq. Davlat moliyaviy nazorati yalpi ichki mahsulot taqsimlanishining qiymat proporsiyalarini kuzatishga qaratilgan. Davlat moliyaviy nazorati-davlat boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, u qonuniylik, muvofiqlik va moliyaviy resurslarni hamda boshqa davlat mulkini boshqarish samaradorligining qabul qilingan qonunlar va standartlaridan chetga chiqishlarni nazoratni o'z ichiga oladi.

Davlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadi ishlab chiqarishning barcha sohalarida moliyaviy resurslarni boshqarish amaliyotining davlat moliyaviy siyosatining vazifalariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Davlat moliyaviy nazoratining eng muhim vazifasi davlat organlari va jamiyatni davlat mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha keng qamrovli va ishonchli axborot bilan ta'minlashdan iborat.

Davlat moliyaviy nazoratining maqsadi davlat byudjeti va byudjetdan tashqari moliyaviy vositalar va davlat mulkidan foydalanishning qonuniyligi va samaradorligini ta'minlashdan iborat. Ushbu asosiy vazifalarga muvofiq, DMN quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarning hajmi, tuzilishi va maqsadlari bo'yicha daromad va xarajatlar moddalarining o'z vaqtida bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish;

- davlat mablag'lari sarf-xarajatlarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash va davlat mulkidan foydalanish;

- byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarning daromad va xarajatlar moddalarining haqiqiylikini baholash;

- qonunlar loyihalarining moliyaviy ekspertizasi, shuningdek davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari, byudjet mablag'lari hisobidan qoplanadigan xarajatlar yoki byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarning shakllantirish va ijro etishga ta'sir qiladi;

- byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlarining belgilangan ko'rsatkichlaridan aniqlangan og'ishlarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflarni tayyorlash, shuningdek, umuman byudjet jarayonini takomillashtirish; -markaziy bank, tijorat banklarning boshqa moliya va kredit

muassasalarida byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari fondlarning qonuniyligi va o'z vaqtida harakatlanishini nazorat qilish;

- davlat byudjetining daromad qismini shakllantirishni ta'minlaydigan soliq, bojxona va boshqa to'lovlar davlat byudjetining daromad qismiga tushishini ta'minlash

- vazirliklar va idoralarning davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish bo'yicha faoliyati samaradorligini baholash;

- buxgalteriya hisobi va hisobotning to'g'riligini nazorat qilish;

- byudjet va soliq intizomini takomillashtirish;

- turli darajadagi byudjetlarning daromad bazasining o'sish zaxiralarini aniqlash va byudjet xarajatlarini kamaytirish;

- byudjetlararo munosabatlar mexanizmini amalga oshirishni nazorat qilish;

- banklar va boshqa kredit muassasalarida byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'larning muomalasini tekshirish;

- mintaqalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadli byudjet fondlarini shakllantirish va taqsimlashni nazorat qilish- soliq va bojxona imtiyozlari, davlat subsidiyalari, subvensiyalar va ayrim toifadagi to'lovchilarga yoki hududlarga boshqa yordam ko'rsatish bo'yicha noqonuniy qarorlar qabul qilinishini oldini olish;

- byudjet va byudjetlararo munosabatlar sohasida moliyaviy suiste'molliklarni aniqlash;

- moliyaviy intizomni oshirish maqsadida profilaktika ishlarini olib borish.

Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlat moliyaviy siyosatiga asoslanadi. Shuning uchun ham moliyaviy siyosat moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy element hisoblanadi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyatidir. Bu faoliyat davlatning u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga qaratilgan. Ijtimoiy rivojlanish deyilganda faqatgina maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanishi tushunilibgina qolmasdan jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi ham tushuniladi. Shuning uchun moliyaviy siyosatni faqat iqtisodiy siyosatga bog'lab qo'yish maqsadga muvofiq emas. Siyosat davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini qamrab oladi. Siyosiy ta'sir ob'ekti hisoblangan ijtimoiy munosabatlar sohasiga bog'liq ravishda iqtisodiy yoki ijtimoiy, madaniy yoki texnikaviy, byudjet yoki kredit, ichki yoki tashqi siyosat to'g'risida gapiriladi. Moliyaviy siyosat o'z-o'zini bosib turuvchi mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu yerda uning iqtisodiyot, ijtimoiy soha, harbiy islohotlar yoki xalqaro munosabatlar bo'lishijiddiy ahamiyatga ega emas.

Moliyaviy siyosatning o'ziga xos bo'lgan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, bu siyosat mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga uzluksiz ravishda ta'sir ko'rsatib turishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunday siyosat aholining turmush farovonligini ta'minlab va davlat

daromadlari manbaini ko'paytirib, moliyaviy xo'jalikka nisbatan eng yuqori natijalarni berishi mumkin..

Moliyaviy siyosatni faollashtirish maqsadida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash amaliyotini tubdan o'zgartirish katta ahamiyatga ega. Byudjet vositasida, shuningdek, yuqori tashkilotlar orqali amalga oshiriladigan «vertikal» uslubga qarama-qarshi moliyaviy resurslarni moliya bozori orqali «gorizantal» qayta taqsimlash ham borgan sari yanada keng rivoj topadi. Mablag'larning o'tkazib turilishi esa moliyaviy resurslardan talab va taklifni hisobga olgan holda foydalanishni nazarda tutadi.

Moliyaviy siyosat real moliyaviy imkoniyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi va tatbiq etilishi zarur. Xarajatlar moliya resurslarining ko'paygandagina o'sishi mumkin. Bu, eng avvalo, ishlab chiqarishni moliyalashtirishni bildiradi. Iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hamma tadbirlari, bir tomondan, aholiga o'z daromadlarini oshirish imkoniyatini berish, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarni yaratishga qaratilishi kerak.

Moliyaviy nazoratning muhim vazifalaridan biri moliyaviy masalalar bo'yicha qonunchilikka rioya qilish, xo'jalik subyektlarining budjet tizimi, [kredit tizimi](#), soliq tizimi hamda korxonalar va tashkilotlar bilan zaro hisob kitoblar va to'lovlar bo'yicha o'zaro moliyaviy majburiyatlarga aniq rioya qilishni tekshirish hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat odatda 2 asosiy jihatlarda ko'rib o'tiladi:

1) barcha iqtisodiy subyektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishini nazorat qilish uchun tashkil qilingan maxsus nazorat organlarining faoliyati.

2) moliyaviy operatsiyalarni maqsadga muvofikligi va samaradorligini ta'minlash maqsadidagi makro va mikrodarajalarda moliyaviy boshqaruv va pul oqimlarini boshqarishning ajralmas elementi sifatida.

Ikkala jihati ham o'zaro bog'liq bo'lib, ular o'zlarining amalga oshirish maqsadlari, usullari va nazorat subyektlari bilan farqlanadilar. Agar birinchi jihatda nazoratning xuquqiy va miqdoriy tomonlari hamrab olinsa ikkinchi holatda asosiy e'tibor moliyaviy nazoratning analitik tomonlariga qaratiladi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazorat 2 o'zaro amal qiluvchi sohalarga bo'linadi: *davlat moliyaviy nazorati va nodavlat moliyaviy nazorati*.

Davlat moliyaviy nazorati mamlakat miqyosida yaratilgan yalpi milliy mahsulotni qiymat nisbatlarida taqsimlashni qamrab oladi. Davlat moliyaviy nazorati davlat pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bilan bog'liq davlat pul resurslari oqimlarini muvofiqlashtiradi. Davlat nazoratchilariga davlat sektorida amalga oshiriladigan taftish va tekshirish bilan birga agar xususiy va korporativ sektorda nazorat o'tkaziladigan obyekt umummilliy iqtisodiy manfaatlariga ega bo'lsa taftish va tekshirish xuquqi beriladi.

Nazoratning davlat va nodavlat turlari o'tkazish usullariga ko'ra o'xshash bo'lishi bilan birgalikda oxirgi maqsadlari bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Davlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadi- davlat g'aznasi uchun pul

resurslarini maksimal darajada tushishini nazorat qilish va davlat xarajatlarini minimal ravishda amalga oshirishni nazorat qilish ya'ni tejamkorlikka rioya qilish hisoblanadi. Nodavlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadi esa- xo`jalik subyektlari tomonidan davlat hisobiga soliqlar va boshqa iqtisodiy agentlarga qilinadigan xarajatlarni minimallashtirish hisobiga qo`yilgan kapitallar hisobiga foyda normasini oshirish hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazorati davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlaydi davlat boshqaruvining funksiyasi, uning maqsadi davlat tomonidan boshqariladigan tizimning davlat tomonidan belgilangan moliyaviy resurslarni boshqarish me'yorlari va qoidalaridan kelib chiqqan holda, bunda farqlarni aniqlash vakolatli organlarni tegishli tuzatuvchi va profilaktik chora — tadbirlarni qabul qilish taminlashdir.

Davlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadi ishlab chiqarishning barcha sohalarida moliyaviy resurslarni boshqarish amaliyotining davlat moliyaviy siyosatining vazifalariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Davlat moliyaviy nazoratining eng muhim vazifasi davlat organlari va jamiyatni davlat mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha keng qamrovli va ishonchli axborot bilan ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasidagi davlat moliyaviy nazoratining vazifalari 2014-yil 1-yanvaridan kuchga kirgan "O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi" asosida tashkil etiladi, bu byudjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligi va tejamkorligi, byudjetning ishonchliligi, byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilishning asosi hisoblanadi. Birinchidan, siyosiy tizimning ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan davlat moliyaviy nazorati bir vaqtning o'zida quyidagi funksiyaga ega bo'lishi mumkin:

- ijtimoiy boshqaruv;
- siyosiy rahbarlik;
- demokratiya;
- huquqiy tartibga solish.

Davlat faoliyatining muayyan shakli sifatida nazorat faoliyati o'z funksiyalariga ega:

Moliyaviy nazorat maxsus tamoyillar orqali amalga oshiriladi. Nazorat tamoyillari - nazoratning ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan va amaliy faoliyatdan o'tgan siyosiy, tashkiliy va huquqiy asoslari bo'lib, ularga amal qilishligi nazoratning samaradorligini ta'minlaydi. Nazorat tamoyillari moliya sohasidagi nazoratning umumiy tartibini maqsadga yo'naltirilganligini belgilab beradi. Ko'p yillik tajriba asosida jahonda davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning asosiy tamoyillari ishlab chiqarilgan bo'lib, har bir sivilizatsiyalashgan davlatlarga amal qilingan va intiladi. Bu tamoyillar qonuniylik, daxlsizlik, obyektivlik, malakalilik, oshkoralikni talab qiladi. Qonuniylik – moliyaviy nazoratning muhim tamoyillaridan biri bo'lib, birinchidan, davlat va mahalliy moliyaviy va moddiy resurslardan fodalanihdagi qonuniylikni ko'zda tutsa, ikkinchidan, nazorat

organlari faoliyati ham qonun asosida belgilangan vakolatlari doirasida tashkil etilmog'i kerak.

Adabiyotlar

1. A.K.Ibragimov, I.K.Ochilov I.N.Qo'ziyev, N.Q.Rizayev (2007) "Moliyaviy va boshqaruv hisobi" o'quv qo'llanma.
2. "Budjet kodeksi" O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami. 52 (I) son, 2013-y.
3. Arens E.A, Lobbek Dj.K. (1995) Audit. Per. s angl. - M.;" Finansi i statistika,". - S. 205 s
4. Audit va sifat nazoratining xalqaro standartlari (2014)1,2,3,4-qismlar UBAMA.
5. Aditorlik faoliyatining milliy standartlari.(2003) Uz-T.:UBAMA.-84b
6. AFMS №50 (2002) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan. y №1128/www.lex.uz/
7. Ergash o'g'li, Q. F. (2022). CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS. Conferencea, 128-130.
8. Ergash o'g'li, Q. F. (2022). IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS. Conferencea, 80-83.
9. Qodirov, F., & Muhitdinov, X. (2022). Features that increase efficiency in the provision of medical services and factors affecting them. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(7), 192-199.
10. Ergash o'g'li, Q. F. (2022). ECONOMETRIC MODELING OF THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION OF THE REGION. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.1 Economical sciences).
11. Nematov, J. (2022). MYBOOK. UZ VIRTUAL KUTUBXONA TIZIMINING IMKONIYATLARI VA XUSUSIYATLARI. Current approaches and new research in modern sciences, 1(5), 56-60.
12. Tulqin o'g'li, U. M., Zokir o'g'li, S. B., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). BIRINCHI VA IKKINCHI TARTIBLI HUSUSIY HOSILALAR. TO'LA DIFFERENSIAL. TAQRIBIY HISOBLASH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 153-158.
13. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). SONLI QATORLAR.(MUSBAT HADLI QATORLARNING YAQINLASHISH TEOREMALARI. LEYBNIS TEOREMASI, ABSOLYUT VA SHARTLI YAQINLASHISH.). TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 137-151.
14. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). YER OSTI SUVLARINING FIZIK XOSSALARI, KIMYOVIY TARKIBI, HARAKATI VA GRUNTLARNING SUV O'TKAZUVCHANLIGI, FILTRATSIYA

- QONUNI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 219-222.
15. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). VEKTOR VA SKALYAR MAYDONLAR. GRADIYENT VA YO'NALISH BO'YICHA HOSILA. DIVERGENSIYA VA ROTOR. SATH CHIZIQLARI. GRADIYENT MAYDONLAR. OQIMLAR. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 172-187.
 16. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). FURE QATORI VA UNING TADBIQLARI. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 21-33.
 17. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). DARAJALI QATORLAR. DARAJALI QATORLARNING YAQINLASHISH RADIUSI VA SOHASI. TEYLOR FORMULASI VA QATORI. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 8-20.
 18. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). STOKS FORMULASI. SIRT INTEGRALLARI TADBIQLARI. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 34-45.
 19. Tulqin o'g'li, U. M. (2022). FURYE QATORI. FUNKSIYALARNI FURYE QATORIGA YOYISH.
 20. Tulqin o'g'li, U. M., & Ergash o'g'li, Q. F. (2022). BIR JINSLI VA BIR JINSLIGA OLIB KELINADIGAN DIFFERENSIAL TENGLAMALAR. AMALIY MASALALARGA TADBIQI (KO'ZGU MASALASI). BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(1), 263-267.